

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA  
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**ISAYEV MAXMUDXODJA SHARIPOVICH**

**MARGANETS, XROM, KOBALT SILITSIDLARI VA ULAR ASOSIDA  
YARATILGAN STRUKTURALARNING ELEKTROFIZIK XOSSALARINI  
TADQIQ ETISH**

**01.04.10 – yarimo‘tkazgichlar fizikasi**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**

**Contents of the abstract of dissertation doctor of science (DSc)**

**Isayev Maxmudxodja Sharipovich**

Marganets, xrom, kobalt silitsidlari va ular asosida yaratilgan strukturalarning elektrofizik xossalarini tadqiq etish..... 3

**Исаев Махмудходжа Шарипович**

Исследование электрофизических свойств силицидов марганца, хрома, кобальта и структур на их основе..... 31

**Isaev Makhmudkhodja Sharipovich**

Research of electrophysical properties of silicides of manganese, chrome, cobalt and structures on its basic..... 61

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 65

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
YARIMO'TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA  
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM/T.01.12 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSIT'I**

**ISAYEV MAXMUDXODJA SHARIPOVICH**

**MARGANETS, XROM, KOBALT SILITSIDLARI VA ULAR ASOSIDA  
YARATILGAN STRUKTURALARNING ELEKTROFIZIK XOSSALARINI  
TADQIQ ETISH**

**01.04.10 – yarimo'tkazgichlar fizikasi**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**



## **Kirish (doktorlik dissertatsiya (DSc) annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Zamonaviy jahon ilmiy texnik taraqqiyoti mikroelektronika va nanoelektronikaning rivojlanishi bilan sezilarli darajada aniqlanadi, bu rivojlanish fundamental fanlarning yutuqlari bilan, birinchi navbatda qattiq jismlar fizikasi va yarimo'tkazgichlar fizikasi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'langan. Bu sohalardagi so'nggi yutuqlar legirlangan yarimo'tkazgichlar fizikasi, nano va optoelektronika, kompyuter va o'lchov texnikasi, aloqa vositalari ehtiyojlari uchun yangi funksional imkoniyatlarga ega bo'lgan mikro - va nanostrukturalar yaratish texnologiyalarini ishlab chiqish bilan bog'liq. Shu nuqtai nazardan monokristallik yarimo'tkazgich, xususan chuqur sathlar hosil qiluvchi va berilgan elektrofizik, termoelektrik, fotoelektrik va optik xossalarga ega bo'lgan kompensatsiyalangan materiallarni olish mumkin bo'lgan kirishmalarni diffuzion legirlash jarayonida kremniy hajmida va sirt oldi qatlamlarida sodir bo'ladigan fizik jarayonlarni tadqiq etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda berilgan elektrofizik, fotoelektrik va optik xossalarga ega bo'lgan diffuzion legirlangan monokristallardan foydalanish zamonaviy mikroelektronikada dolzarb masala hisoblanadi. Zero, kremniy monokristallini o'stirishning yaxshi ishlab chiqilgan texnologiyasi, uning asosida yaratiladigan integral asboblari planar texnologiyasi, kremniyda kichik o'lchamli obyektlarni hosil qilishning tubdan yangi texnologiyasi mavjudligi, uning xossalari turli usullar bilan modifikatsiya qilish, shuningdek kremniy sirtida hajmiy qismiga xos bo'lmagan yangi fizik hodisalarning aniqlanganligi kremniy mikro - va nanoelektronika ehtiyojlari uchun faol material sifatida ishlatilishida mutaxassislarining jiddiy e'tiborini tortadi.

Hozirgi vaqtda o'tishli metall silitsidlari o'zining agressiv muhitlarga va yuqori temperaturali ishlovlarga chidamliligi bilan kelasi avlod yangi, istiqbolli sxemalari uchun asosiy material bo'lib bormoqda. Shuning uchun kirishma atomlarining kristall hajmiga kirish mexanizmini, ularning kristall matrisa atomlari bilan va texnologik kirishmalar bilan o'zaro ta'sirini kompleks tadqiq qilish dolzarb hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan diffuzion legirlash jarayonida sirt oldi sohasida silitsidlarning hosil bo'lishini tadqiq etish va ular asosida yangi yarimo'tkazgich asboblarni yaratish mikro - va nanoelektronika uchun yangi materiallar qidirib topishda alohida ilmiy ahamiyatga ega.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-martdagi PQ-5011-son "Elektrotexnika va elektronika sanoatini yanada rivojlantirish va mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-son «Ta'lim sifatini oshirish va fizika sohasida ilmiy tadqiqotlarni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari, shuningdek, ushbu sohada qabul qilingan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga tadqiqot ishlarining mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining III. “Energiya, energiya tejamkorligi, transport, mashinasozlik va asbobsozlik; zamonaviy elektrotexnika, mikroelektronika, fotonika, elektron asbobsozlikni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha horijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>1</sup>.** Hozirgi kunda kichik o‘lchamli strukturalar sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlar bilan yetakchi ilmiy markazlar va universitetlar shug‘ullanishadi, chunonchi: Spintronika markazi (Vashington sh., AQSh); Pekin milliy laboratoriyasida o‘ta o‘tkazuvchanlikning (Pekin sh., XXR); Xitoy Fanlar akademiyasi kondensirlangan holat fizikasi bo‘yicha Pekin milliy laboratoriyasi (Pekin sh., XXR); Merilend universiteti (Merilend shtati, AQSh); Yaqin Sharq texnika universiteti (Anqara sh., Turkiya); Oslo universiteti (Oslo sh., Norvegiya); Ion dastalar va Materialshunoslik fizikasi instituti (Drezden sh., Germaniya); Tokio universiteti (elektr kommunikatsiyalar bo‘yicha ilmiy-tadqiqot universiteti); (Tokio sh., Yaponiya), Jozef Furiye nomli universitet (Grenobl sh., Fransiya); Kaliforniya universiteti fizika va astronomiya departamenti (Los Anjeles sh., AQSh); Albanidagi Nyu York shtati universiteti (Albani, Nyu-York sh., AQSh); Myunxen texnika universiteti qoshidagi Valter Shottki nomidagi institut nanotexnologiyalar va nanomateriallar markazi (Myunxen sh., Germaniya); Koreya universiteti spintronika materiallari laboratoriyasi (Pshong sh., Janubiy Koreya); Kopengagen universiteti (Kopengagen sh., Daniya); Prinston universiteti (Prinston sh., AQSh); Ayova universiteti (Ayova-Siti sh., AQSh); Illinoy universiteti (Chikago sh., AQSh); Mikroelektronikaning kimyoviy muammolar instituti (Moskva sh., RF); RFAning mikroelektronika va o‘ta toza materiallar texnologiyalar instituti (Chernogolovka sh., RF); Lomonosov nomidagi MDU (Moskva sh., RF); Tomsk davlat texnika universiteti (Tomsk sh., RF); N.I.Lobachevskiy nomidagi Nijegorod universiteti (Nijniy Novgorod sh., RF); I.P.Bardin nomidagi qora metallurgiya Markaziy ilmiy-tadqiqot instituti (Moskva sh., RF); va boshqalar.

Yuqorida nomlari keltirilgan tadqiqotlar markazlarida bugunga kelib kichik o‘lchamli yarimo‘tkazgichlar olish texnologiyalari bo‘yicha va ularning fizika hamda kimyoviy xossalarini o‘rganish bo‘yicha bir qator masalalar yechilgan (Prinston universiteti, Prinston sh., Ayova universiteti, Ayova-Siti sh., Illinoy universiteti, Chikago sh., AQSh). Qator ilmiy markazlarda temirning o‘tish guruhi elementlari (temir, xrom, kobalt, nikel, marganets)ni kremniyga ion implantasiyasi usuli bilan kiritilgan namunalarda xona haroratidagi ferromagnetizmni o‘rganish bo‘yicha tadqiqot ishlari bajarilgan va bu tadqiqotlar asosida hodisaga fizikaviy interpretatsiya berilgan (Pekin o‘ta o‘tkazuvchanlik milliy laboratoriyasi, Xitoy FA Kondensirlangan holat fizikasi institutining Pekin milliy laboratoriyasi (Pekin sh., XXR), Merilend universiteti (Merilend shtati, AQSh), Moskva davlat universiteti

---

<sup>1</sup> Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha halqaro ilmiy tadqiqotlar obzori quyidagilar asosida o‘tkazildi: <https://journal.aps.org>, <https://ufn.ru>, [lettersonmaterials.com](http://lettersonmaterials.com), [phys.org](http://phys.org), [iopscience.iop.org](http://iopscience.iop.org), [journal.ioffe.ru](http://journal.ioffe.ru), Web of Science, Scopus, Springer, Research Gate va boshqa adabiy manbalar.

(Moskva sh., RF), N.I. Lobachevskiy nomidagi Nijegorod universiteti (Nijniy Novgorod sh., RF), I.P. Bardin nomidagi qora metallurgiya Markaziy ilmiy-tadqiqot instituti, Moskva sh., RF). Monokristalli kremniy hajmida temir o'tish guruhi elementlari diffuziyasi asosida kvant o'lchamli obyektlar yaratish bo'yicha va ularning material fizik xossalariga ta'sirini o'rganish bo'yicha katta hajmdagi ishlar olib borildi (O'zMU, TDTU, O'zbekiston). Ion implantatsiyasi qilinganda kremniyda xona temperaturasida kuzatilgan ferromagnetizmni o'rganish sohasidagi tadqiqotlarni intensivlashtirish qilish yarimo'tkazgich sanoati ehtiyoji uchun yangi materiallarni sintez qilishga olib keldi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Shu vaqtga qadar kremniy taqiqlangan zonasida chuqur sathlar (ChS) hosil qiluvchi Mendeleyev jadvalidagi 30 dan ortiq kirishma atomlar tabiati tadqiq qilingan. Shunday kirishmalar bilan legirlangan kristallarning xossalarini tadqiq etish natijalari xususan Baxodirxonov M.K. va boshqalar ishlarida umumlashtirilgan. O'zgarmas manbadan kremniyga diffuzion usulda kiritilgan qorishmalarga xos bo'lgan xarakterli xossaga ularning kremniy hajmidan farq qiluvchi xususiyatga ega bo'lgan sirt oldi sohaning hosil bo'lishini keltirish mumkin. Bunda bu qatlamdagi kirishma konsentratsiyasi ularning eruvchanlik chegarasidan 2-4 tartibga ortiq bo'lishi mumkin. Bu kirishma konsentratsion taqsimotida ikki sohaning: keskin sirt oldi va qiya hajmiy sohalarning hosil bo'lishiga olib keladi. Bunda faqat hajmiy qism o'rganilgan.

O'ta o'tkazuvchanlik bo'yicha Pekin milliy laboratoriyasi, Xitoy fanlar akademiyasi Fizika instituti va kondensirlangan holat fizikasi bo'yicha Pekin milliy laboratoriyasi (Pekin, XXR) tadqiqotchilari (L.J. Gao va b.) kollaboratsiya qilib, energiyasi 200 keV va dozasi  $1,0 \times 10^{15} \text{ sm}^{-2}$  bo'lgan Cr ionlari bilan implantatsiya qilingan p – Si (100) mikrostrukturasi va magnit xossalarini SQUID magnitometri va skanerlovchi (SEM), hamda transmission elektron mikroskop (TEM) yordamida o'rganishdi.

Merilend (AQSh) universiteti eksperimentator- olimlari B.Kane boshchiligida yaqin maydonli skanerlovchi optik mikroskop yordamida elektronlarni detektorlashdi, xuddi shu universitet tadqiqotchilari guruhi D. Dreyua boshchiligida elektronlarning spinini qayd qilishdi. Professor R. Vebb guruhi Si dagi fosfor donori yadro spinini kvant hisoblashlarda foydalanish imkoniyatlarini o'rganishdi.

Ion dastalari fizikasi va Materialshunoslik instituti (Drezden, Germaniya)dan Yu. Fessbender M. Bolduk, Nyu-York Albani davlat universiteti nanoo'lchamlar ilmi va muxandisligi kollejidan, Moskva davlat universitetidan A.B. Granovskiy, L. Orlova, I.V. Kulemanov olimlar guruhi, Mn ionlari bilan implantatsiya qilingan kremniyning magnit va mikrostrukturali xossalarini tadqiq etishdi, hamda marganets ionlari bilan bog'liq xona haroratidagi ferromagnetizmni aniqlashdi.

AQShdagi IBM firmasi xodimlarining turli universitetlar, ilg'or texnologiyalarni tadqiq qilish va ishlab chiqish bilan keng qamrovli o'zaro hamkorligi mavjud. Jumladan, AQSh Kaliforniya shtatida joylashgan markaz (IBM – Stanford Spintronic Science and Applications Center (Spin Aps) 2004-yildan boshlab spintronika asoslarini nazariy va amaliy tadqiqotlar va ular asosida ilg'or texnologiyalarni rivojlantirish bilan shug'ullanishadi.

O‘zbekiston Respublikasida ionlar implantatsiyasi va yuqori temperaturali diffuziya orqali monokristallik kremniy va boshqa yarimo‘tkazgich materiallarga, hamda dielektriklarga kirishmalar kiritilganda hosil bo‘ladigan kvant o‘chlamli strukturalar (KO‘S) olish texnologiyalari va ularning fizik-kimyoviy, optik, elektrofizik va magnit xossalariga ta’siri bilan katta olimlar guruhi shug‘ullanayapti.

Ularga O‘zFA akademiklari M.K. Baxadirxanov, R.A. Muminov, A.T. Mamadalimov, S.Z. Zaynabidinov, professorlar X.S. Daliyev, Sh.B. Utamurodova, K.P. Abduraxmanov, X.K. Aripov, R. Aliyev, T.S. Kamilov, B.E. Umirzakov, B. Egamberdiyev va boshqalar kiradi. Ular ishtirokida katta o‘lchamli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda va ahamiyati katta bo‘lgan ilmiy natijalar olinayapti.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya ishi bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan aloqadorligi.** Dissertatsiya tadqiqotlari O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining F2.1.6. “Chuqur sathli kirishmalar bilan legirlangan kremniyli strukturalarning fizik xossalariga tashqi ta’sirlarning va zaryad tashuvchilar injeksiyalarining ta’sirini tadqiq etish” (2003-2007 yy.) va A-4-7 “Mikro - va optoelektronika, shuningdek Quyosh energetikasi asboblari uchun kremniy va arsenid galliy monokristallik pardasi sirt oldi sohasida geteroepitaksial nanoo‘lchamli strukturalar sintezi texnologiyasini ishlab chiqish” (2015-2017-yy.) ilmiy loyihalari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi** Marganets, xrom, kobalt silitsidlari va ular asosida yaratilgan strukturalarning elektrofizik xossalarini tadqiq etishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

marganets, xrom va kobalt bilan diffuziya natijasida legirlangan kremniy sirt oldi sohasi galvanomagnit xossalarini tadqiq etish;

xrom, marganets va kobalt bilan diffuzion legirlangan kremniy sirt oldi sohasi nojinsligini tadqiq etish;

diffuzion legirlangan kremniy sirt oldi sohasi strukturasi va tarkibini tadqiq etish;

metall silitsidlari va ular asosida yaratilgan strukturalar orqali tok o‘tish mexanizmini tadqiq etish;

xrom, kobalt va marganets silitsidlari termoelektrik xossalarini tadqiq etish;

silitsidlar va ular asosida yaratilgan strukturalar fotoelektrik xossalarini tadqiq etish;

metall silitsidlari va ular asosida yaratilgan strukturalar asosida yangi sezgir asboblarni maketini ishlab chiqish va yaratishdan iborat.

**Tadqiqotning obyektlari** bo‘lib monokristall kremniy, marganets, kobalt, xrom silitsidlari va ular asosidagi  $p^+-i-p^+$ ,  $p^+-i-m$  strukturalar hisoblanadi.

**Tadqiqot predmeti** bo‘lib marganets, kobalt va xrom atomlari bilan monokristallik kremniyni diffuzion legirlaganda sirt oldi sohasida silitsid pardalarning, bir jinsli bo‘lmagan sohalarning hosil bo‘lish jarayonlari, shuningdek silitsidlar asosida hosil bo‘ladigan strukturalarning o‘ziga xos xususiyatlari hisoblanadi.

**Tadqiqot usullari.** Qo'yilgan masalalarni yechish uchun quyidagi usullar qo'llanilgan: qarshilikni o'lchashning to'rt zondli usuli, Xoll koeffitsientini o'lchash usuli, lazer nurlanishini modulyatsiyalash usuli, foto o'tkazuvchanlikni o'lchash usuli, muvozanatda bo'lmagan zaryad tashuvchilar yashash vaqtini o'lchash usuli.

**Tadqiqotlarning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

marganets, xrom va kobalt bilan diffuzion legirlangan kremniy sirt oldi qatlami hosil bo'lish tabiati tadqiq qilingan. Metall atomlari bilan legirlangan kremniy sirt oldi sohasi  $Mn_xSi_y$ ,  $Cr_xSi_y$ ,  $Co_xSi_y$  tipidagi murakkab birikmadan tashkil topishi, bu qatlam qalinligining metall atomlari miqdoriga, temperaturaga, toblash vaqtiga va vakuumning darajasiga bog'liqligi aniqlangan;

diffuzion to'yinish temperaturasidagi metall atomlarining eruvchanlik miqdori bilan eruvchanlikdan  $2 \div 4$  tartibga ko'p bo'lgan sirt oldi sohasidagi metall konsentratsiyasi o'rtasida mavjud bo'lgan qarama-qarshilik tushuntirilgan. Metall atomlarining kremniy sirt oldi sohasidagi bunday eruvchanligi metallning kremniy bilan kimyoviy birikishi tufayli hosil bo'ladigan metall silitsidlari bilan bog'liq ekanligi aniqlangan;

metall atomlari bilan legirlangan kremniy kristall chuqurligi bo'yicha fotozond tadqiqotlari asosida bir jinsli bo'lmagan sohalari topografiyasi aniqlangan va ichki elektr maydon o'lchangan. Legirlangan kristall bir jinsli bo'lmagan sohalari metall atomlarining silitsid to'plamlari tufayli hosil bo'lishi aniqlangan;

Mn, Cr, Co bilan legirlangan Si sirt oldi sohasining p – tip o'tkazuvchanlikka ega bo'lishi, tok tashuvchilar konsentratsiyasi  $10^{20} \div 10^{21} \text{ sm}^{-3}$  va Xoll siljuvchanligi  $1 \div 17 \text{ sm}^2/\text{V}\cdot\text{s}$  ga teng bo'lishi aniqlangan.

silitsid – yarimo'tkazgich – silitsid tipidagi modellashtirilgan struktura asosida tok o'tish mexanizmi nazariy va eksperimental tadqiq etilgan va infraqizil, temperatura so'nishi kabi fotoelektrik effektlar tushuntirilgan;

xrom, kobalt, marganets silitsidlarining termoelektrik xossalari tadqiq etilgan va optimal termoelektrik xossali yarimo'tkazgichli material sintezi texnologiyasini aytib berish tavsiya etilgan;

Mn, Cr, Co bilan legirlangan Si kristallarida fotoo'tkazuvchanlik va fotoEYuK kristallning  $30 \mu\text{m}$  chuqurligida eng katta qiymatga ega bo'lishi aniqlangan;

yoritilganlikning VAX ga ta'sirini o'rganilib,  $p^+ \text{-} i \text{-} p^+$  strukturaning fotosezgirliги eng katta qiymatga ixtiyoriy yoritilganlik intensivliklarida o'tish  $0,8 \pm 0,1 \text{ V}$  ga siljiganida erishishi aniqlangan;

$p^+ \text{-} i \text{-} p^+$  va  $p \text{-} i \text{-} n$  strukturalar asosida yuqori fotosezgirlikka ega fotoelektrik qurilma va infraqizil nurlarni sezuvchi datchiklar yaratilgan.

**Tadqiqotlarning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

Berilgan elektrofizik parametrlari, ehtiyoji sezilgan strukturalari, arzonligi va sodda texnologik jarayonda tayyorlanishi bilan ajralib turadigan xrom, marganets va kobalt silitsidlari pardalarini olish usuli taklif etilgan. Metall silitsidlari asosida  $0,63 \div 2 \mu\text{m}$  to'lqin uzunliklari sohasida yuqori fotosezgirlikka ega bo'lgan dielektrik bazali diodlarni yaratish imkoniyati ko'rsatilgan. Silitsidlar asosida sendvich-fotorezistorlar yaratish imkoniyati ko'rsatilgan. Bizning yangi uslubiy ishlanmalarimiz: yarimo'tkazgich nojinsliligini tadqiq etuvchi qurilma,

yarimo'tkazgich parametrlarining vaqtga bog'liqlik xarakteristikalarini o'lchash uchun qurilma, marganets silitsidi asosidagi fotosezgirliги yuqori bo'lgan yarimo'tkazgichli fotoelektrik qurilma, silitsidlar va kremniy asosida yaratilgan infraqizil nurlar detektori, infraqizil vlagomer, ko'tarib yurishga mo'ljallangan keng diapazonli portativ termometr dan iborat.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqotning zamonaviy ilmiy usullarining, standart texnologik qurilmalarning va yuqori aniqlikdagi qurilmalarning, namuna elektrofizik parametrlarini o'lchash uchun ishlatilgan standart qurilmalarning qo'llanilishi bilan, shuningdek eksperimentlarning zaruriy statistikasining qo'llanilishi bilan, olingan natijalarni boshqa mualliflar natijalari bilan qiyosiy tahlil qilinishi bilan, olingan natijalarni mavjud bo'lgan aprobat siya qilingan fizik modellar doirasida talqin qilinishi bilan asoslanadi.

#### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati**

Olingan natijalarning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ular chuqur sathlar hosil qiluvchi kirishmalarning matritsa (kremniy) atomlari bilan o'zaro ta'siri haqidagi, kremniy sirtida silitsid pardalarni o'stirish haqidagi fizik tasavvurlarni rivojlantiradi, shuningdek metall silitsidlari pardalarini mikroelektronikada qo'llash, xususan, ular asosida termo-, vlagomer - va fotosezgir strukturalar yaratish imkoniyatini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ular metall silitsidlari asosida  $0,63 \div 2 \mu\text{m}$  to'liq uzunligi sohasida yuqori fotosezgirlikka ega bo'lgan diodni yaratishga imkon beradi.

#### **Tadqiqot ishlarining joriy qilinishi.**

Kremniyni marganets, xrom va kobalt atomlari bilan diffuzion usulda legirlaganda uning sirt oldi sohasida silitsidlarning shakllanishi hamda ularning elektrofizik, fotoelektrik, termoelektrik xossalari ni tadqiq etish natijalari asosida:

marganets, xrom va kobalt atomlari bilan legirlangan kremniy asosidagi  $p^+-i-p^+$ ,  $p^+-i-m$  strukturalar yordamida yaratilgan yuqori sezgirlikdagi elektron termometrlar va nam o'lchagichlardan va ularni yasash texnologiyalaridan "FOTON" AJ da foydalanilgan ("Uzeltexsanoat" AK tomonidan 2021-yil 22-dekabrda berilgan №04-3/2716 raqamli ma'lumotnoma). Ilmiy natijalardan foydalanish tayyor mahsulotlar omborida harorat va namlikni ushlab turish va "Foton" AJ da ishlab chiqarilgan mahsulotlarni nazorat qilish imkoniyatini bergan.

Kremniyni metall atomlari bilan legirlaganda hosil bo'ladigan silitsidlarni hosil qilish texnologiyasidan, silitsid – yarimo'tkazgich – silitsid orqali tok o'tish fizik mexanizmidan, optimal termoelektrik va fotoelektrik xossali yarimo'tkazgichli silitsidlarni sintez qilish usullaridan FA-F3-004 "Yuqori samaradorlikka ega bo'lgan arzon fotoalmashtirgichlar va ular asosida yaratiladigan uzoq xizmat qiladigan fotoenergetik qurilmalar uchun fundamental yangi fizik modellar, mexanizmlar, usullarni o'rganish" mavzusidagi fundamental loyahasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tomonidan 2022-yilning 18-aprelida berilgan №2/1255-895-raqamli ma'lumotnoma). Olingan

natijalar yuqori samaradorli, arzon fotoalmashtirgichlar yaratish imkoniyatini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 11 ta xalqaro va 13 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya materiallari bo'yicha 57 ta ilmiy ishlar nashr qilingan. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola nashr etilgan. Bitta patent olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, oltita bob, xulosa va 156 ta foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 194 betda bayon qilingan, 73 ta rasm hamda 7 ta jadval mavjud.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurligi har tomonlama asoslangan, tadqiqotning respublikamizdagi fan va texnologiyalar rivojining asosiy ustuvor yo'nalishlari bilan aloqasi ko'rsatib berilgan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro ilmiy-tadqiqotlarning mufassal sharhi va dissertatsiya doirasida qaralayotgan muammolarning o'rganilganlik darajasi, ularning zamonaviy holatining tahlili, tadqiqot mavzusining dolzarbligi, yo'nalishning ilmiy yangiligi asoslangan, ishning maqsadi va bu maqsadni amalga oshirish uchun yechilishi zarur bo'lgan masalalar tavsifi, o'tkazilgan tadqiqotlarning ilmiy va amaliy ahamiyati keltirilgan.


**Dissertatsiyaning "Kremniyda chuqur sathlar hosil qiluvchi kirishmalarning konsentratsion taqsimoti"** deb nomlangan birinchi bobida asosan keyingi yillarda kremniyda chuqur sathlar hosil qiluvchi kirishmalar sohasida mavjud ilmiy tadqiqotlar bo'yicha adabiyotlar sharhi va tahlili keltirilgan. Bunda kremniyni metall atomlari bilan surtilgan qatlamdan ham, gazli fazadan ham diffuzion legirlash jarayonida hosil bo'ladigan sirt oldi sohasining tabiati muhokama qilingan. Metall silitsidlari bo'yicha adabiyot ma'lumotlari tahlil qilingan va ularning elektrofizik va kinetik parametrlari muhokama qilingan. Bobning oxirida ushbu dissertatsiya ishi doirasida amalga oshiriladigan tadqiqot maqsadi keltirilgan.

**"Legirlangan kremniyni va uning asosida yaratilgan strukturalarni hosil qilish va tadqiq etish metodlari"** deb nomlangan ikkinchi bobda chuqur sathlar hosil qiluvchi elementlar bilan legirlash metodikasi, legirlangan namunalar o'tkazuvchanlik taqsimotini aniqlash metodikasi, elektrofizik parametrlarni o'lchashdagi xatoliklar, bir jinsli bo'lmagan holda legirlangan yarimo'tkazgichlar uchun Xoll koeffitsiyentini o'lchash metodikasi, kremniydagi fotoo'tkazuvchanlikning pasayishi orqali asosiy bo'lmagan zaryad tashuvchilar yashash vaqtini o'lchash va fotoo'tkazuvchanlik kinetikasini tadqiq etish metodikasi, metall atomlari bilan legirlangan kremniy nojinsliligini yorug'lik zondi yordamida aniqlash metodikasi keltirilgan.

**“Diffuzion legirlangan kremniy sirt oldi qatlamining elektrik va galvanomagnet xossalarini tadqiq etish”** nomli uchinchi bobda marganets, xrom va kobalt bilan diffuzion legirlangan kremniy galvanomagnet xossalarini tadqiq etish bo‘yicha o‘lchash natijalari keltirilgan. Dastlabki kremniyni diffuzion legirlash jarayonida uning o‘tkazuvchanlik tipiga, sayoz sathlar konsentratsiyasiga va sovutish tezligiga bog‘liq bo‘lmagan holda p–tip o‘tkazuvchanlikli, tok tashuvchilar konsentratsiyasi  $10^{20} \div 10^{21} \text{ sm}^{-3}$  va Xoll harakatchanligi  $1 \div 17 \text{ sm}^2/V \cdot \text{s}$  bo‘lgan kichik omli sirt oldi qatlami hosil bo‘lishi ko‘rsatilgan.

Eksperiment natijalari sirt oldi sohasida sirt o‘tkazuvchanligi miqdorining qalinlik bo‘yicha taqsimot xarakteri marganets, xrom va kobaltlarning shu sohada radioaktiv o‘lchash natijalaridagi konsentratsion taqsimot profili xarakterini takrorlashi ko‘rsatilgan.

Kompleks (Xoll, fotosig‘im, fotoelektrik) tadqiqotlarning ko‘rsatishicha marganets, xrom va kobaltlar kremniyda 1-jadvalda keltirilgan sathlarni hosil qiladi.




**1-rasm. p-Si<Mn> uchun tok tashuvchilar konsentratsiyasi taqsimoti (a) va sirt o‘tkazuvchanligi taqsimoti (b). T=300 K.**

1-jadval

Elementlar	Legirlangan kremniy ta'qiqlangan zonasidagi energetik sathlar (hajmiy qismda)
Mn	$E_c - (0,3 \pm 0,02) \text{ eV}; E_c - (0,41 \pm 0,02) \text{ eV};$ $E_c - (0,53 \pm 0,03) \text{ eV}$
Cr	$E_c - (0,22 \pm 0,02) \text{ eV}; E_c - (0,55 \pm 0,03) \text{ eV};$ $E_v + (0,31 \pm 0,02) \text{ eV}; E_v + (0,39 \pm 0,02) \text{ eV}$

Co	$E_c - (0,22 \pm 0,02) eV; E_c - (0,37 \pm 0,02) eV$
	$E_c - (0,53 \pm 0,03) eV; E_v + (0,1 \pm 0,02) eV$
	$E_v + (0,3 \pm 0,02) eV$

n-Si<Mn> da o'tkazilgan tadqiqotlar marganets elektr aktiv atomlari



2-rasm. Si<Mn> orqali o'tayotgan tokning yedirib tashlangan qatlam qalinligiga qarab temperatura bo'yicha o'zgarishi:

1 – 0 mkm (dastlabki); 2 – 0 mkm (HCl da yedirilgandan so'ng); 3 – 10 mkm, 4 – 20 mkm; 5 – 50 mkm, qo'yilgan maydon: 1 ÷ 4 – 2 V/sm; 5 – 18 V/sm.

bunda bor konsentratsiyasi ortib borishi bilan elektr jihatdan faol bo'lgan Mn atomlari konsentratsiyasi ortadi va maksimal konsentratsiya  $10^{16} \text{ sm}^{-3}$  ga yetadi.

Diffuzion parametr miqdorlari, kristall panjara tuguni va tugunlar orasidagi eruvchanlik, shuningdek kirishma atomlari energetik sathlari va ularning davriy sistemadagi holatlari o'rtasida ma'lum munosiblik mavjudligi ko'rsatilgan. Bunday qoidaning bajarilishini kremniydagi 3d – elementlarining kirishma atomlari tabiatida kuzatish mumkin : Sc – Ti – V – Cr – Mn – Fe – Co – Ni – Cu – Zn. Bunday elementlar diffuziya koeffitsiyentlari D bo'lishi mumkin bo'lgan maksimal yumshatish temperaturalarida  $10^{-7} \text{ sm}^2 / \text{s}$  dan kam bo'lmaydi. D ning T ga bog'liqligi barcha kirishmalar uchun  $D = D_0 \exp (-\Delta E / kT)$  ifoda orqali tavsiflab beriladi. Bu kirishmalarning kremniydagi eruvchanligi  $10^{18} \text{ sm}^{-3}$  dan ortmaydi. Qaralayotgan kirishmalar uchun diffuziya koeffitsienti sayoz sathli kirishmalarnikidan ancha katta. Mn, Cr, Co donor xossalari va dastlabki kremniy o'ktazuvchanligining kovakli

konsentratsiyasi sayoz sathdagi donolar konsentratsiyasiga bog'liq emasligini va uning maksimal qiymati  $\sim 4 \cdot 10^{14} \text{ sm}^{-3}$  bo'lishligini ko'rsatdi. Bunday namunalar uchun solishtirma o'tkazuvchanlikning va Xoll koeffitsiyentining temperaturaga bog'liqligi barcha hollarda  $E_c - 0,24 \text{ eV}$  energiyali donorli sath hosil bo'lishini ko'rsatdi, bu natija M.K.Bahodirxonov va boshqalar ma'lumotlari bilan o'z tasdig'ini topgan.

p-Si dagi marganets tabiatini o'rganish maqsadida turli tarkibdagi bor ( $10^{14} \div 10^{16} \text{ sm}^{-3}$ ) mavjud bo'lgan p – Si ga Mn bir xil legirlash rejimi ( $T=1100 \text{ }^\circ\text{C}$ , 40 min vaqt davomiyligi, chiniqtirish tezligi  $\sim 100 \text{ grad/s}$ )da diffuziya qilindi. Elektrik va galvanomagnetli o'lchamlar shuni ko'rsatdiki,

xarakteri o'rtasidagi, shuningdek Mn, Cr, Co larning kremniydagi diffuzion to'yinish temperaturasiidagi eruvchanligi va shu elementlarning sirt yaqinidagi konsentratsiyasining eruvchanlikdan 2-4 tartibga yuqori bo'lishidagi qarama-qarshilik mavjudligi ko'rsatilgan.

Bu qarama-qarshilik sababini aniqlash uchun Si<Mn> namunasidan o'tayotgan tokning temperaturaga bog'liqligi sirt oldi sohadan qatlam-qatlam olingandan so'ng o'rganilgan (2-rasm).

Kristall sirti metallik o'tkazuvchanlikka ega bo'lishi, sirtdan qatlamlar olinishi borasida yarim o'tkazuvchanlikka asta-sekin o'tishi ko'rsatilgan. Elektr o'tkazuvchanlikning temperaturaga bog'liqligi o'rganilganda temperatura pasayishi bilan elektr o'tkazuvchanlikning ortishi ko'rsatilgan. O'tkazuvchanlikning temperatura bo'yicha o'zgarishi tok tashuvchilarning fononlarda va kirishma ionlarida sochilishi bilan tushuntirilgan.

Elektrofizik xossalarning kompensatsiya darajasiga bog'liqligini aniqlash uchun ortiqcha kompensatsiya qilingan n-Si<Mn> va kompensatsiya darajasi turlicha ( $k=0,3\div 0,99$ ) bo'lgan p-Si<Mn> tayyorlangan. Tadqiqot natijalari kompensatsiya darajasi kuchsiz bo'lgan n-Si<Mn> da  $E_c - 0,24$  eV sath kuzatilishini "k" ortishi bilan sath ionizatsiya energiyasi ortib  $E_c - 0,33$  eV ga etishini ko'rsatdi. Kuchli kompensatsiya qilingan n-Si<Mn> namunalariida yana bitta donor sath kuzatiladi, uning ionizatsiya energiyasi ham "k" ga bog'liq bo'lib,  $E_c - (0,42 \div 0,53)$  eV intervalda yotadi.

Eksperiment natijalarini tushuntirish uchun Si<Mn> da musbat zaryadlangan Mn ionlarining klaster to'plamlari hosil bo'ladi deb taxmin qilinadi, u holda Si<Mn> nisbatan bir jinsli massaga joylashtirilgan yirik izolyatsiya qilingan to'plamlardan iborat bir jinsli bo'lmagan material sifatida qarash mumkin. Si<Mn> elektrofizik xossalarning farqlovchi xususiyatlari (Mn ionizatsiya energiyasi spektrining hosil bo'lishi, bor konsentratsiyasi ortishi bilan  $Mn^+$  konsentratsiyasining ortishi va boshqalar) shunday xulosa qilishga asos bo'ladi, bunda bunday klasterlarning yadrolari bo'lib borning manfiy zaryadlangan atomlari yoki vakansiyalar xizmat qiladi, ular o'z atrofida 2 tadan 4 tagacha ionlashgan tugunlararo marganets atomlarini bog'lab turadi.  $k \geq 0,9$  (klasterlar konsentratsiyasi  $\geq 10^{12} \text{sm}^{-3}$ ) bo'lganda klaster hajmiy zaryadlar sohalarning yopilib ketishi sodir bo'ladi va klasterlar sochilish markazlari sifatida emas, balki aralashma toklarining kam qarshilik bilan o'tadigan makroskopik markaz sifatida ishlab turadi.


Bir jinsli emaslikni aniqlash uchun lokal fotozond usuli va lazer nurlanishining kichik burchakda sochilish usuli ishlatildi. Bu usullar bir jinsli bo'lmagan sohalarni, ayniqsa o'tkazuvchanlik gradiyenti katta bo'lgan sohalarni yuqori aniqlikda aniqlash imkoniyatini beradi.

Lokal fotoEYuK usuli bilan turli o'lchamlardagi  $(0,3\div 0,5) \cdot (0,3\div 1,6) \cdot (0,5\div 1,6) \text{sm}^{-3}$  to'g'ri burchakli parallelepiped shaklidagi legirlangan Si<Mn>, Si<Cr>, Si<Co> kristallardagi, dastlabki, termo ishlov berilgan va nazorat kristallardagi bir jinslimaslik tadqiq qilindi.


3-rasmda tipik n-Si<Mn> kristalli uchun sirtdan  $3\div 5 \mu\text{m}$  qalinlikdagi qatlam olib tashlangandan keyin, to'lqin uzunligi  $0,63 \mu\text{m}$  bo'lgan yorug'lik bilan

nurlantirgandagi yorug'lik skanerlar natijalari keltirilgan. Rasmdan fotosignalning nuqtadan nuqtaga nomonoton o'zgarishi ko'rinib turibdi.

O'lchashlarning ko'rsatishicha barcha Si<Mn> kristallarda olib tashlanadigan qatlam qalinligi ortishi bilan fotoEYuK spektr zichligi kamayadi. Tadqiqot natijalari sirtida yangi faza hosil bo'lishini ko'rsatadi. Bunday faza oriyentirlovchi taglikda uning atomlarini hisobga olib o'sadi va taglik kristallik panjarasini qonuniy davom ettiradi.



3-rasm. n-Si<Mn> namuna sirtidagi fotoEYuK spektri ( $T=300\text{K}$ ,  $\lambda = 0,63\ \mu\text{m}$ )



4- rasm. Fotoeyukning n-Si<Mn> uchun namuna qalinligiga bog'liqligi ( $T = 300\ \text{K}$ ,  $\lambda = 0,63\ \mu\text{m}$ )

FotoEYuK miqdorining sirtoldi qatlam qalinligiga bog'liqligi 4-rasmda keltirilgan. Rasmdan shu narsa ko'rinadiki, bunda fotoEYuK signali qatlam olinib borishi bilan  $\sim 25\ \mu\text{m}$  chuqurlikkacha ortib boradi, so'ngra tor sohada to'yinadi va  $\sim 30\ \mu\text{m}$  dan keyin ravon kamayadi va  $45\div 50\ \mu\text{m}$  dan so'ng to'laligicha yo'q bo'lib ketadi.

Legirlangan kristall bir jinsli bo'lmagan sohasidagi ichki elektr maydonni Tauts metodikasi asosida aniqlash imkoniyati ko'rsatilgan. n-Si<Mn> kristallida qo'yilgan tashqi elektr maydoni  $E_e = 0,9 \div 1,2\ \text{V/sm}$  bo'lganida ichki elektr maydon qiymati  $E_i = 1,8\ \text{V/sm}$  bo'lishi aniqlangan.

Xrom, marganets va kobaltlar bilan diffuzion legirlangan kremniy sirt oldi sohasining struktura modeli taklif qilingan. Unga ko'ra kompensatsiyalangan kremniy sirt oldi sohasi o'rtasida kompensatsiyalangan qatlami mavjud bo'lgan, ketma-ket - parallel ulangan ko'p sonli Shottki diodlari (juftlari) dan iborat. Bunday model sirtidan  $3\div 45\ \mu\text{m}$  chuqurlikda joylashgan ikkinchi fazaning orolchali xarakteri bilan aniqlanadi. Buni fotoEYuK miqdorining  $\sim 25\div 30\ \mu\text{m}$  chuqurlikda maksimumga ega bo'lishi ham tasdiqlaydi; bu chuqurlikda orolchalar (aralashmalar) va kremniy – ikkinchi faza aralashmalari chegarasi maksimal yig'indi sirti o'rtasida optimal munosabat bor.

**“Diffuzion legirlangan kremniy sirt oldi sohasining strukturasini va tarkibini tadqiq etish”** nomli to'rtinchi bobda xrom, marganets va kobalt atomlari bilan diffuzion legirlangan kremniy sirt oldi qatlamlari va metall-kremniy qism chegaralari fizikaviy-kimyoviy xarakteristikalari ko'rib chiqilgan.

Rastrli elektron mikroskop (REM-200) tadqiqotlari namuna sirtida blokli strukturalar va ular o'rtasida fazalararo chegaralar mavjudligini ko'rsatdi. REMning


ajrata olish qobiliyati legirlanayotgan elementning atom nomeriga bog'liq va  $\sim 100 \text{ \AA}$  gacha yetadi. Bloklar o'rtasidagi ko'ndalang kesim baholanganda uning taxminan  $1000 \text{ \AA}$  ga teng ekanligi aniqlandi.

Bunday namunalar MIK-1 va MIK-4 turdagi infraqizil mikroskoplarda o'rganildi. Legirlangan namuna sirtida infraqizil nurlarga shaffof bo'lmagan yaxlit strukturalar hosil bo'lishi aniqlandi. Sirtidan  $3 \text{ \mu m}$  dan ortiqroq qatlam olib tashlanganda turli struktura, ya'ni infraqizil nurlar uchun navbatma-navbat keladigan shaffof va noshaffof sohalar kuzatilgan (5-rasm)



5- rasm. Kristall sirtidagi yarimo'tkazgichli silitsidlar mikrofotografiyasi (1400 marta kattalashtirish)

6-rasmda  $980 \text{ }^\circ\text{C}$  temperaturada 30 min davomida termodiffuziya qilingandan keyingi kobaltli kremniy difraktogrammasi keltirilgan. Rasmda kobalt disilitsidining o'tkir cho'qqilari ko'rinib turibdi, bu issiqlik bilan stimulyatsiya qilingan kimyoviy



6- rasm. Kobalt kremniy rentgen difraktogrammasi.  
 $T=980^\circ\text{C}$ ,  $t=30 \text{ min}$ .


reaksiya jarayonida kremniy taglikda silitsidlar hosil bo'lishini ko'rsatadi. Shunga o'xshash difraktogrammalar xrom va marganets bilan diffuzion legirlangan kremniy uchun ham olingan.

Metall silitsidlarining strukturasi va ularning hosil bo'lish tabiati diffuziya temperaturasiga, diffuziyalanayotgan atomlar miqdoriga, sovutish tezligiga va vakuum chuqurlik darajasiga bog'liqligi aniqlangan.

Diffuzion legirlangan kremniy sirtining tekshirilayotgan faza strukturasi haqida axborot olish uchun o'lchangan qaytish spektrlari kremniyning mumkin bo'lgan ma'lum fazalari spektrlari orqali identifikatsiya qilinadi. Marganets, xrom va kobalt bilan legirlangan kremniydan qaytish spektrlari UR-20 qurilmasida  $2 \div 25 \mu\text{m}$  intervalda o'lchangan.

Optik usullar bilan o'lchashga mo'ljallangan namunalar  $2 \times 5 \times 10 \text{ mm}^3$  o'lchamli to'g'ri burchakli parallelepipeddan iborat bo'lgan.

7-rasmda marganets bilan legirlangan kremniy uchun V.K.Zaytsev metodi bo'yicha o'lchangan optik qaytish koeffitsiyentining chastotaga bog'lanishi keltirilgan. Undan kristall sirtida marganetsning oliy silitsidi fazalari hosil bo'lishi ko'rinib turibdi. Silitsid qatlamning qalinligini aniqlash uchun namuna sirtidan qatlam-qatlam olib tashlangandan keyingi sirtidan qaytish koeffitsiyenti o'lchandi (7-rasm, 2, 3, 4 – egri chiziqlar).




7- rasm. Namunadan qaytish koeffitsientining spektral bog'lanishi

1- oliy marganets silitsidi polikristallik namunasidan qaytish spektri; 2-dastlabki silliqdangan sirt uchun; 3-sirtidan qalinligi  $10 \mu\text{m}$  bo'lgan qatlam olingandan keyingi sirt uchun; 4- $50 \mu\text{m}$  olingandan so'ng; ordinata shkalasi pastga qarab 2 va 3 egri chiziqlar uchun 10% ga, 4-egri chiziq uchun 15% ga surilgan

O'lchashlarning ko'rsatishicha, namuna sirtidan  $\sim 50 \mu\text{m}$  qatlam olib tashlanganda qaytish koeffitsientidagi xarakterli cho'qqilar yo'q bo'lib ketadi. Tadqiqotlar silitsid qatlamining hosil bo'lish chuqurligi kristallga, diffuzant

miqdoriga, qizdirish temperaturasi, diffuziya vaqtiga, sovutish tezligiga va vakuumning chuqurlik darajasiga bog‘liqligini ko‘rsatdi.

8-rasmda 1050 °C temperaturada 60 minut davomida toblangan Si<Mn> namunasi uchun ionlarning teskari tomonga sochilish spektri keltirilgan. Spekrni tahlil qilinganida marganetsning oliy silitsidlari hosil bo‘lishi aniqlangan.



**8- rasm. 1050 °C temperaturada 60 minut davomida toblangan Si<Mn> namuna uchun ionlarning orqaga sochilish spektri**

Xrom silitsidli kristallarning yumshatish temperaturasi 450 °C dan ortganda silitsid o‘shishi yumshatish vaqtiga chiziqli bog‘langan (9-rasm). Silitsid qalinligi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$W = [B \exp (-E_a/ kT)] t. (1)$$

bu yerda  $V$  – o‘zgarmas kattalik,  $E_a$  – o‘shish jarayoni o‘rtacha aktivatsiya energiyasi,  $k$  – Bolsman doimiysi,  $T$  – absolyut temperatura,  $t$  – toblash vaqti.

Arrenius grafigidan faza hosil bo‘lishi jarayonining aktivlashish energiyasi aniqlangan, u  $E_a = 1.5 \pm 0.1$  eV ga teng chiqqan.


Silitsid aralashmalarining o‘lchamlarini aniqlash uchun sochilgan nurlarni modulyatsiya qilish metodi ishlatildi, bunda  $\rho = 10^4 \Omega \cdot sm$  ga teng bo‘lgan, Choxralskiy usulida o‘stirilgan, diametri 65 ÷ 110 mm bo‘lgan monokristall kremniy o‘rganildi. Bunday kristallar ushbu usul bilan ilk bora o‘rganildi.

Termik ishlov berilmagan, yuqori toza dislokatsiyasiz kremniy namunalarini elektron mikroskopiya, rentgen mikroanalizi va CO<sub>2</sub> nurlanishning kichik burchakli sochilishi usullari bilan tekshirilganda ularida defektlarning uch turi: svirl defektlar, kirishmali mikroaralashmalar va kirishmali bulutlar mavjudligi aniqlandi.

Svirl defektlar geterogen mexanizm tufayli paydo bo‘ladi va qatlam-qatlam bo‘lib joylashadi. Bunday defektlarning konsentratsiyasi  $10^6 \div 10^8 sm^{-3}$  ga teng.

Kremniyni o‘stirish jarayonida sovutish tezligini tanlash orqali bunday turdagi defektlardan ozod bo‘lish mumkin.

Ikkinchi tur defekti bo‘lib kirishmali mikroaralashma hisoblanadi, uni yangi



**9- rasm. CrSi<sub>2</sub> uchun yumshatish temperaturasi T=450 °C bo‘lganida silitsid qatlami qalinligining vaqtga bog‘lanishi**

singan joyda rentgen mikroanalizi usuli bilan qayd etildi. Mikroaralashma tarkibiga uglerod, kalsiy, fosfor, xlor, allyuminiy, natriy va boshqa ba‘zi kirishmalar kiradi. Mikroaralashma o‘lchamlari mikronning ulushlari va undan yuqoriroq kattalikka ega bo‘lib,  $\sim 10^7 \text{sm}^{-3}$  konsentratsiyaga ega. Bu kirishmalar monokristallni o‘stirayotganda eritmadan tortib olingan deb taxmin qilinadi.

Mikroaralashma tarkibiga kiruvchi kirishmalar bilan to‘yingan yuqori toza kristalda ularning qisman qorilib ketishi mumkin. Bunda sekin diffuziyalanuvchi kirishmalar

aralashma atrofida taxminan 10  $\mu\text{m}$  o‘lchamli g‘aramlar hosil qiladi. Katta konsentratsiyali qorilib ketgan kirishmalar mavjud bo‘lgan bunday lokal sohalar kirishmali bulutlar deyiladi. Bunday defektlar mavjudligi to‘lqin uzunligi 10,6  $\mu\text{m}$  bo‘lgan CO<sub>2</sub> lazer nurlanishining kichik burchakli sochilish usuli bilan aniqlangan.


Shunday qilib, strukturasi mikronuqsonlar mavjud bo‘lgan kremniy bir jinslilik darajasini nazorat qiluvchi bu usulni o‘ta katta integral sxemalar va yarimo‘tkazgichli qurilmalar yaratishda ishlatiladigan katta diametrli dislokatsiyadan holi kremniyni ishlab chiqarishda qo‘llanilishi mumkin.

CO<sub>2</sub> nurlanishning kichik burchakli sochilish usuli marganets, xrom va kobalt bilan diffuzion legirlangan sirt oldi sohasidagi silitsidli orolchalarni aniqlashda qo‘llanildi. O‘lchash natijalari sirt oldi qatlamda o‘lchami  $8 \div 20 \mu\text{m}$  bo‘lgan silitsid kirishmalari hosil bo‘lishini ko‘rsatdi.

10-rasmda silitsid kirishmalari konsentratsiyasining chuqurlik (kristall ichi) bo‘yicha taqsimoti ko‘rsatilgan. Rasmdan ko‘rinib turibdiki, kristallning  $\sim 3 \mu\text{m}$  sirt qalinligida silitsid aralashmalar to‘yinishiga ega, ya‘ni yaxlit parda hosil bo‘lgan. Aralashma konsentratsiyasi 3  $\mu\text{m}$  dan 30  $\mu\text{m}$  gacha chuqurlikda ravon kamayadi.

Olingan eksperiment natijalari kremniydagi Cr, Co, Mn lar yuqori darajadagi reaksiya qobiliyatiga ega ekanligini ko‘rsatdi: legirlangan kristall sirtida xrom, marganets va kobaltlarning metallik fazalari kuzatilmadi. Kremniyni gazli fazadan diffuzion legirlaganda uning sirtida metallarning mono-, di-, oliy silitsidlari hosil bo‘ladi. Qalinligi  $3 \div 10 \mu\text{m}$  bo‘lgan sirt oldi qatlamda amorf faza kuzatilgan. Turli kristallarda 10-50  $\mu\text{m}$  chuqurlikda turlicha silitsidlar: Si<Mn> uchun asosan marganets oliy silitsidi, Si<Cr> uchun xromning mono va disilitsidlari, Si<Co> uchun asosan kobalt disilitsidi kuzatilgan. Namunaning sirtidan 50  $\mu\text{m}$  dan ortiq qalinlikdagi qatlam olib tashlanganda yuqorida zikr etilgan metallarning silitsidlari


topilmagan. Marganets purkalgan kremniyni yumshatilganda namuna ko‘ndalang kesimi bo‘yicha silitsid fazalarining o‘shish kinetikasi o‘rganilganida shuni aniqlandiki, bunda silitsid qatlami qalinligi (W) ning yumshatish vaqti (t) ga bog‘liqligi parabolik bo‘lar ekan (11-rasm).



10- rasm. Silitsid aralashmalar sirt konsentratsiyasining kristall chuqurligiga bog‘lanishi

Vaqtning kichik qiymatlarida (11-rasm, AB qism) bu bog‘lanish buziladi, buning sababi silitsid hosil bo‘lish reaksiya tezligining cheklanganligi bo‘lishi kerak. Qatlamlar qalinlik bo‘yicha vaqtning kvadrat ildiziga proporsional holda shakllanadi (BC soha). t vaqt ichida shakllanadigan silitsid qatlami qalinligi (W):

$$W = \{ [ B \cdot \exp(-E_a/kT) ] \}^{1/2} \quad (2)$$



11- rasm. Marganets oliy silitsidi qalinligining yumshatish vaqtiga bogliqligi

CoSi va Co<sub>2</sub>Si qatlamlar hosil bo'lishida fazaviy o'sishning huddi shunday  $t^{1/2}$  ga bog'lanishi aniqlangan. CrSi<sub>2</sub> holida esa vaqtga chiziqli bog'lanish aniqlangan (9-rasm), uni bo'lim chegarasi holati bilan aniqlanadigan tezlikda o'zaro ta'sir yuz beradi deb tushuntiriladi.

Diffuziya koeffitsienti (D) miqdorini W ning vaqtga bog'liqlik chiziq qiyaligidan hisoblab topish mumkin.

Faza hosil bo'lish jarayonining aktivatsiya energiyasini diffuziya koeffitsiyentining teskari temperaturaga bog'liqligidan aniqlash mumkin. Aktivlanish energiyalarining miqdori CrSi<sub>2</sub> uchun 1,5 eV ga, Co<sub>2</sub>Si uchun 1,5 eV ga, CoSi uchun 1,9 eV ga va MnSi<sub>1,75</sub> uchun 1,4 eV ga teng.

Olingan natijalarning tahliliga ko'ra kremniyni gazlangan fazadan diffuzion legirlaganda silitsidlar hosil bo'lishida dastlab metall atomlariga boy silitsidlar, so'ngra metall monosilitsidlari hosil bo'ladi. Kremniyga metall atomlari purkalib issiqlik yordamida yumshatilganida esa kremniy va metall chegarasida metall atomlari bilan boy bo'lgan metall silitsidlari hosil bo'ladi.

Dissertatsiyaning **“Metall silitsidlari va ular asosida yaratilgan strukturalar orqali tok o'tish mexanizmini tadqiq etish”** deb nomlangan beshinchi bobda xrom, marganets, kobalt silitsidlari va ular asosida yaratilgan strukturalarning elektrofizik xossalarini eksperimental va nazariy tadqiq etish natijalari keltirilgan.

Metall silitsidlari quyidagicha tayyorlangan: metall atomlari yuqori ( $10^{-7}$  mm.sim.ust.dan kam bo'lmagan) vakuumda kremniy sirtiga 1200÷2000 Å qalinlikda purkalgan va kvarts ampulalarida T=900÷1100 °C temperaturalarda toblangan.


Elektr o'tkazuvchanlikning tipik temperatura bog'liqligi xrom silitsidi uchun 12-rasmda keltirilgan.

Rasmdan CrSi uchun ham CrSi<sub>2</sub> uchun ham uchta qism kuzatiladi. Birinchi qism – 200 °C ÷ +150 °C, bu sohada temperatura ortishi bilan elektr o'tkazuvchanlik chiziqli kamayadi. Ikkinchi qism – temperaturalar sohasi 150÷250 °C bo'lgan soha bo'lib, unda elektr o'tkazuvchanlik deyarli o'zgarmaydi. Uchinchi qism – temperaturalar sohasi 250 ÷ 500 °C bo'lib, unda temperatura ortishi bilan elektr o'tkazuvchanlik chiziqli ortadi. Birinchi qismda xrom silitsidi o'zini metallsimon qilib namoyon qiladi, bunda u manfiy temperatura koeffitsientiga ega bo'ladi.

Uchinchi qismda xrom silitsidining temperaturaga bog'liqligi yarimo'tkazgichniki kabi bo'ladi (musbat temperatura koeffitsiyenti).

Xrom monosilitsidi elektr o'tkazuvchanligi disilitsidnikadan 6-7 marta ko'p, buning sababi zaryad tashuvchilar miqdoridagi farqdadir. Birinchi qismda elektr o'tkazuvchanlikning pasayishi panjara fononlarida, kristallik zarralarda, kristall mukammal emasligi (defektlar)da, kirishma ionlarida va hokazolarda elektronlar sochilishining kuchayishi bilan tushuntirilgan. Shuni ham ta'kidlash lozimki, temperaturaning turli sohalarida turli turdagi to'qnashishlarning tutgan o'rni bir xil emas. Bizning kristallarda asosiy vazifani panjaradagi atom tebranishlarida va kristallik zarralar chegarasida yuz beradigan sochilishlar o'ynaydi.

Marganets va kobalt silitsidlari uchun elektr o'tkazuvchanlikning temperaturaga bog'liqligi elektr o'tkazuvchanlikning temperatura ortishi bilan monoton pasayishini ko'rsatadi. O'rganilgan temperatura intervalida elektr o'tkazuvchanlik 2-3,5 marta o'zgaradi. O'rganilgan silitsidlar temperaturaviy koeffitsientlari metallar uchun kuzatiladiganga yaqin. Turli silitsidlardagi elektr o'tkazuvchanlik qiymatlarining farqi ulardagi tok tashuvchilar miqdorlarining turlichaligi bilan tushuntiriladi. Temperatura ortishi bilan elektr o'tkazuvchanlikning pasayishi fononlar va kristallik zarralar chegarasidagi sochilishning ortishi va oqibatda tok tashuvchilar siljivchanligining pasayishi bilan tushuntiriladi.



12- rasm. Xrom silitsidlari elektr o'tkazuvchanligining temperaturaga bog'liqligi:  
1 – CrSi uchun; 2 – CrSi<sub>2</sub> – uchun.

Xrom silitsidi – kremniy asosida Shottki diodlari tayyorlangan, bunda ishlatilgan kremniy kirishmalar konsentratsiyasi  $(2\div 9) \cdot 10^{15} \text{sm}^{-3}$  bo'lgan, Choxralskiy usulida o'stirilgan, n – tipdagi monokristallik kremniy quymasidan kesib olingan.

Marganets, xrom va kobalt bilan kremniyni diffuzion legirlaganda hosil bo'ladigan silitsid va kremniy chegarasida Shottki diodi olish imkoniyati ko'rsatilgan. Shottki diodining asosiy parametrlari: baryer balandligi ( $\phi_{bn}$ ), ideallik koeffitsienti (n), qatlam qalinligi (d) va sirt holatlari zichligi ( $D_s$ ) aniqlangan.

Sistemadagi fizik hodisalarning mikroskopik analizi qilingan va zaryadlarning baryer orqali ko'p pog'onali o'tish modelining realligi asoslab berilgan.


Ko'p pog'onali tunnel mexanizmidagi odimlar soni va odimlar o'rtasidagi energetik baryer aniqlangan.

Silitsid asosida yaratilgan Shottki baryeri parametrlariga yorug'lik va temperaturaning ta'sir etishi aniqlangan. Sirt elektron holatlarining Shottki diodi parametrlariga ta'siri aniqlangan.

Sirt holatlari zichligining temperaturaga bog'liqligi 13-rasmda keltirilgan.

Tok tashishning ustunlik qiluvchi mexanizmi tunnelovchi mexanizm ekanligi ko'rsatilgan. Kremniyni xrom, marganets va kobaltlar bilan diffuzion legirlash asosida  $p^+ - i - p^+$  strukturalar yaratish imkoniyatlari taklif etilgan. Quyidagi parametrlarni hisobga oluvchi strukturaning zonali diagrammasi yaratilgan: solishtirma qarshilik  $\rho(x)$ , Fermi sathi ( $E_F$ ), silitsid va yarimo'tkazgichning chiqish ishlari  $\Phi_c, \Phi_n$ , elektronlar va kovaklar konsentratsiyasi ( $p, n$ ). Silitsid – yarimo'tkazgich chegarasida  $\Phi_c > \Phi_n$  da kontakt potentsiallar farqi  $0,2 \div 0,25$  eV bo'lishi aniqlangan.

Baza uzunligi turlicha bo'lgan silitsid – yarimo'tkazgich – silitsid struktura VAXsi temperatura va yorug'likka bog'liq holda o'rganilgan. To'g'ri siljishda fotosignalning injeksion kuchayishi analiz qilingan va boshlang'ich fototokning silitsid – yarimo'tkazgich o'tish sohasi orqali injeksiyalanayotgan tok tashuvchilar hisobiga kuchayishini ta'minlash mumkinligi ko'rsatilgan.



13- rasm. Mn Si<sub>1.75</sub>/n-Si diodi sirt holatlari zichligi miqdorining temperaturaga bog'liqligi


Dissertatsiyaning “**Silitsidlar va ular asosida yaratilgan strukturalar termo - va fotoelektrik xossalarini tadqiq etish**” oltinchi bobi xrom, kobalt va marganets silitsidlarining termo - va fotoelektrik xossalarini, shuningdek silitsid – kompensatsiyalangan kremniy – silitsid strukturalarning termostimulyatsiya o'tkazuvchanligini tadqiq etishga bag'ishlangan.

